

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va  
nazorat qilish bo'yicha**

**USLUBIY KO'RSATMA**

**Namangan 2019**





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**B. SATTAROV, A. TOSHXONOV**

**Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat  
qilish bo'yicha**

**USLUBIY KO'RSATMA**

**Namangan 2019**

Ushbu uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14- avgustdagi 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma" asosida va 2018-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan ishlab chiqilgan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmadan universitetimizda talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda me'yoriy hujjat sifatida foydalaniladi.

**Tuzuvchilar:** NamDU BTM kafedrası o'qituvchisi  
Sattarov Baxtiyor

NamDU BTM kafedrası o'qituvchisi  
Toshxonov Azizbek

**Taqrizchilar:** p.f.n., dots. N. Uluxo'jayev  
p.f.n., dots. M. Nishonov

Ushbu uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashida 2019 yil \_\_-\_\_\_\_da o'tkazilgan yig'ilishida \_\_-sonli bayonnoma bilan muhokama qilinib, ma'qullangan va nashr etishga tavsiya qilingan.

## **Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishning umumiy tavsifi**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, taxlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Talaba mustaqil ish (TMI)** – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi-oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni taxlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin

ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruxan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur, Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

**Talabalar mustaqil ishlarining shakli va xajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:**

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Yani, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

TMI ni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

- amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash;

- hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish;

- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;

- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savaollar va topshiriqlar tayyorlash;

- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;

- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;

- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

**Mavzuni mustaqil o'zlashtirish.** Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan aloxida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savodlarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob

tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriq fan o'qituvchisi tomonidan (talaba navbattagi topshiqni bajargunga qadar) tekshirib baholanadi.

**Referat tayyorlash.** Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va k.h.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslaxat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat fan o'qituvchisi tomonidan (talaba navbattagi topshiqni bajargunga qadar) tekshirib baholanadi.

**Ko'rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yoriqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va fan o'qituvchisi tomonidan (talaba navbattagi topshiqni bajargunga qadar) tekshirib baholanadi.

**Mavzu bo'yicha testlar, munozaralar savollar va topshiriqlar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish



topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganli, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi fan o'qituvchisi tomonidan (talaba navbattagi topshiqni bajargunga qadar) tekshirib baholanadi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga biror bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) karakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, taxlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izoxlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza fan o'qituvchisi tomonidan (talaba navbattagi topshiqni bajargunga qadar) tekshirib baholanadi.

**Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.** Bir, mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish. o'qituvchi bilan xamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

### **Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:**

- tizimli yondashish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

### **Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:**

➤ maqsad (bilimni mustaxkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi;

➤ vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;

➤ topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada habardor bo'lishi;

➤ maslaxat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlari birgalikda hal qilish va h.k.);

➤ hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;

➤ nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

### **Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:**

✓ auditoriyada amalga oshiriladigan TMilari. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustaxkamlashga oid topshiriqlar bashariladi;

✓ auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMilari. O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish,

amaliy va laborotoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laborotoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolliigi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ichki o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, taxlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

**Talabalar mustaqil ishni baholash.** TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga va 9-avgust 2018-yildagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

**5111700-Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi**  
**talabalariga “Matematika o’qitish metodikasi” fanidan ishchi dastur**  
**bajarilishining kalendar tematik rejasi**

№	Modul va mavzu nomlari	Mashg’ulot turi	Ajratilgan vaqt	Talabalar mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma’lumot		O’qituvchi imzosi
						Soat	Oy va kun	
<b>1-modul</b>								
1	Boshlang’ich sinfda matematika o’qitish metodikasi fan sifatida. Boshlang’ich sinf matematika kursining mazmuni.	Ma’ruza	2	Boshlang’ich sinfda matematika o’qitish metodikasi fan sifatida shakllanishi va Boshlang’ich sinf matematika kursining mazmuni mavzusini o’qib tahlil qilish	Yozma uy ishi	2		
2	Davlat ta’lim standarti, darslik va dasturlar tahlili.	Amaliy	4	Davlat ta’lim standarti, darslik va dasturlarni tahlil qilish	Yozma hisobot	2		
3	Davlat ta’lim standarti va dastur, darslik mazmuni va ular orasidagi uzviylikni ta’minlash.	Seminar	2	Davlat ta’lim standarti va dastur, darslik mazmuni va ular orasidagi uzviylikni ta’minlash	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		
4	Dars tahlili, texnologik xarita tuzish	Amaliy	4	Dars tahlili, texnologik xarita tuzish	Ijodiy ish	2		
5	O’qituvchining darsga metodik-matematik tayyorgarligi va vazifalari.	Seminar	4	O’qituvchining darsga metodik-matematik tayyorgarligi va vazifalarini aniqlash va konsekt qilish	Yozma uy ishi	2		
6	Matematika o’qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqalari.	Ma’ruza	2	Matematika o’qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqaorlik tomonlarini aniqlab	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		

				chiqish, fanlararo aloqadorlik nuqtalarini alohida misollar bilan ko'rsatish.				
7	Fakultativ darslarni tashkil etish mazmuni.	Amaliy	4	Fakultativ dars namunalarini tayyorlash	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		
8	Boshlang'ich sinflar matematikasining 5-6 sinflar va maktabgacha ta'lim bilan bog'lanishi	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinflar matematikasining 5-6 sinflar va maktabgacha ta'lim bilan bog'lanishi yoritib chiqish, uzlukli joylarini aniqlash.	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		
9	Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlag'ich sinflarda o'qitish mazmuni.	Amaliy	4	Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlag'ich sinflarda o'qitish tizimini o'rganish	Yozma hisobot	2		
10	Dars tahlili, texnologik xarita tuzish.	Seminar	2	Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlag'ich sinflar uchun bir soatlik dars texnologik xaritasini tuzish	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		
11	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va fanning muhim bo'lgan muammolari.	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning ishlari bilan tanishish va fanning muhim bo'lgan muammolarini aniqlash	Yozma hisobot va ijodiy ish	2		
12	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodlari.	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodlarini o'rganish va ularni qayerda qanday qo'llashni aniqlash	Yozma hisobot	2		

13	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari.	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinfda matematika fanidan dars turlarini va ularning tashkil qilish shakllarini aniqlash	Yozma uy ishi	2		
14	Boshlang'ich sinf matematika darslarini zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinf matematika darslarini zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalar asosida o'qitish metodikasidan misollar keltirish	Grafik va yozma hisobot	2		
15	Darslarda pedagogik texnologiya va axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanish yo'llari.	Seminar	2	Darslarda pedagogik texnologiya va axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanish yo'llari yoritib berish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash	Grafik va yozma hisobot	2		
16	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishning darsdan tashqari shakllari.	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishning darsdan tashqari shakllari mavzusini o'qib tahlil qilish	Yozma hisobot	2		
17	Darsdan (sinf dan va maktabdan) tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish.	Amaliy	4	—	—			
18	Matematik mazmunda to'garak, olimpiada va boshqa darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borish.	Amaliy	4	Matematik mazmunda to'garak, olimpiada va boshqa darsdan tashqari mashg'ulotlaridan o'tkazilish tartibi va talablarini aniqlab tahlil qilish.	Yozma hisobot	2		
19	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodlari.	Seminar	2	—	—			
20	Mashg'ulotlarini o'tkazishda didaktik o'yinlardan	Amaliy	4	Boshlang'ich sinfda matematika fanini o'qitishdagi afzalligi	Yozma hisobot va	4		

	foydalanish.			yuqori bo'lgan didaktik o'yinlarni topish yoki yangisini ishlab chiqish.	ijodiy ish			
21	Nazoratning (test va boshqa) usul va shakllari;	Amaliy	4	Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda nazorat (test va boshqa) topshiriqlarini ishlab chiqish	Yozma ijodiy ish	2		
22	O'quvchilarning o'quv yili oxiridagi bilim, ko'nikma hamda malakalariga qo'yilgan dastur talablari asosida nazorat tahlili.	Seminar	4	—	—			
23	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish o'quv vositalari.	Ma'ruza	2	Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishdagi o'quv vositalari va ularni o'qitishdagi ahamiyatini aniqlash	Yozma uy ishi	2		
24	I sinfda matematika fanining nazariy to'plam asosi, tayyorgarlik davri.	Amaliy	4	—	—			
25	Oz komplektli maktablarda matematika o'qitish xususiyatlari.	Ma'ruza	2	Respublikamizda Oz komplektli maktablarda matematika o'qitish xususiyatlari.	Yozma uy ishi	2		
26	Variativ o'qitish usullari.	Amaliy	4	Variativ o'qitish usullari.	Yozma uy ishi	2		
	<u>Jami:</u>		<u>122</u>					
	<u>Jumladan: Maruza</u>		<u>20</u>					
	<u>Amaliy mashg'ulot</u>		<u>40</u>					
	<u>Seminar mashg'uloti</u>		<u>16</u>					
	<u>Mustaqil ish</u>		<u>46</u>					

Izoh: TMI hajmidan kelib chiqib o'quv jadvaliga haftasiga bir marta kunning ikkinchi yarmiga konsultatsiya darsi qo'yiladi. (TMI 46 soat / 21=2c.)

**“Matematika o’qitish metodikasi” fanidan talabalar bilimini baholash me’zonlari**

**Reyting ishlanmasi**

<b>№</b>	<b>Nazorat turlari</b>		<b>Soni</b>	<b>Ball</b>	<b>Jami ball</b>
<b>1</b>	Joriy nazorat	1.1. Amaliy mashg’ulotlari davomida olgan bilimlari uchun	20	0-1	<b>20</b>
		1.2. Seminar mashg’ulotlari davomida olgan bilimlari uchun	7	0-0.7	<b>5</b>
		1.3. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o’z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun	22	0-0,7	<b>15</b>
<b>2</b>	Oraliq nazorat	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar uchun	1	0-30	<b>30</b>
<b>3</b>	Yakuniy nazorat	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar uchun	1	0-30	<b>30</b>
<b>Jami:</b>					<b>100</b>

5 baholik baholash ishlanmasi

<b>Nazorat turlari</b>					
Joriy nazorat		Oraliq nazorat	<b>Jami</b>	Yakuniy nazorat	<b>Jami o’zlashtirish ko’rsatkichi</b>
Amaliy va seminar mashg’ulotlari davomida olgan bilimlari uchun	Mustaqil ish topshiriqlarining o’z vaqtida va sifatli bajarilishi	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar uchun		Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar uchun	
5	5	5	<b>5</b>	5	<b>5</b>
4	4	4	<b>4</b>	4	<b>4</b>
3	3	3	<b>3</b>	3	<b>3</b>
2	2	2	<b>2</b>	2	<b>2</b>



## **Talabalar bilimini baholash mezonlari.**

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

➤ talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

➤ talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

➤ talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

➤ talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Har bir professor o'qituvchi o'quv yili(semestr)ning boshida fan bo'yicha O'quv uslubiy majmua, ishchi dastur, baholash mezonini, taqvimiy rejalarini ishlab chiqadi. Har bir dars uchun ma'ruza matni, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalarini, oraliq va yakuniy nazoratdan umumiy savollar to'plamini va mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni ishlab chiqadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar har bir dars mavzusiga alohida-alohida tuziladi.

Semestr boshida talabaga MI mavzulari va uning bajarilishining taqimiy rejasi beriladi. Talaba har bir yangi darsda yangi mustaqil ta'lim uchun topshiriq oladi va uni keyingi darsgacha bajaradi.

Talaba har bir fandan mustaqil ta'lim topshiriqlari uchun ikkitadan(aylanma) daftar tutadi. O'qituvchi birinchi darsda bergan topshirig'ini talabalar birinchi daftarga bajarib keladilar va ikkinchi darsda birinchi daftarni o'qituvchiga topshiradi. Ikkinchi dars topshirig'ini esa ikkinchi daftarga bajarib keladilar va uchinchi darsda ikkinchi daftarni topshirib birinchi daftarlarini qaytarib olishadi.

O'qituvchi birinchi va ikkinchi dars oralig'ida birinchi daftarlarni, ikkinchi va uchinchi dars oralig'ida ikkinchi daftarlarni tekshiradi. Talabalar MIlarini daftardan boshqa vositalar yordamida bajarishlari ham mumkin. Talabalar har bir darsga tayyorlanib, berilgan mustaqil ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga majbur bo'ladilar. Bu o'z navbatida semestr davomida TMI bajarilishi uzluksizligini taminlaydi. O'qituvchilar semestr yakunida TMI baholash uchun vaqt ajratishga majbur bo'lmaydi. Bir o'qituvchi bir haftada bir guruhda o'rtacha 2-4 soat dars o'tadi. Bir kunda o'rtacha ikki guruhning daftarini tekshirib chiqish o'qituvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi.

### **“Matematika o'qitish metodikasi” fanidan baholashning reyting me'zoni**

1.1. Amaliy mashg'ulotga qatnashib, uning topshiriqlarini to'la va sifatli bajargan talabaga 0,9-1 ball, sifatli va mayor talablari darajasida bajargan talabalarga 0,7-0,8 ball, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 0,6-0,7 ball beriladi. Topshiriqlarni bajarilish darajasi qoniqarsiz bo'lsa, bajarilish darajasiga qarab 0-0,5 ball beriladi.

1.2. Seminar mashg'ulotiga qatnashib, uning topshiriqlarini to'la mustaqil bajargan va amalda qo'llay oladigan talabaga 0,6-0,7 ball, sifatli va meyor talablari darajasida bajargan talabalarga 0,5-0,6 ball, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 0,4-0,5 ball beriladi. Topshiriqlarni bajarilish darajasi qoniqarsiz bo'lsa, bajarilish darajasiga qarab 0-0,3 ball beriladi.

1.3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarining bajarilishi hajmi va sifatiga qarab 0,4 dan 0,7 ballgacha berilishi mumkin (topshiriqlarini to'la mustaqil bajargan va amalda qo'llay oladigan talabaga 0,6-0,7 ball, sifatli va meyor talablari darajasida bajargan talabalarga 0,5-0,6 ball, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 0,4-0,5 ball).

2.1. Oraliq baholash yozma(test) tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 10 ballacha (30 ta test savoliga javob berishi so'raladi. Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan, ha bir noto'g'ri javob 0 ball bilan) baholanadi.

- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – 8,6-10 ball
- savolning mohiyati umumiy ochilgan bo'lsa, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – 7,1-8,5 ball
- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa va ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa – 5,5-7,0 ball
- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – 4,0-5,4 ball

3.1. Yakuniy baholash yozma tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 10 ballacha jami 30 ball bilan baholanadi yoki test tarzida o'tkazilib, 30 ta test savoliga javob berishi so'raladi. Har bir to'g'i javob 1 ball bilan, ha bir noto'g'ri javob 0 ball bilan baholanadi. Yakuniy baholash yozma tarzda o'tkazilgan taqdirda baholash quyidagi tartibda olib boriladi.

- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – 8,6-10 ball
- savolning mohiyati umumiy ochilgan bo'lsa, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – 7,1-8,5 ball
- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa va ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa – 5,5-7,0 ball
- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – 4,0-5,4 ball

### **“Matematika o'qitish metodikasi” fanidan 5 baholik shkala bo'yicha baholash me'zoni**

1.1. Amaliy mashg'ulotga qatnashib, uning topshiriqlarini to'la va sifatli bajargan talabaga 5 baho, sifatli va mayor talablari darajasida bajargan talabalarga 4 baho, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 3 baho bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarilish darajasi qoniqarsiz bo'lsa 2 baho bilan baholanadi. Amaliy mashg'ulotlarida olingan jami ballarni qo'shib o'rtachasi olinadi.

1.2. Seminar mashg'ulotiga qatnashib, uning topshiriqlarini to'la mustaqil bajargan va amalda qo'llay oladigan talabaga 5 baho, sifatli va meyor talablari

darajasida bajargan talabalarga 4 baho, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 3 baho bilan baholanadi. Topshiriqlarni bajarilish darajasi qoniqarsiz bo'lsa 2 baho bilan baholanadi. Seminar mashg'ulotlarida olingan jami ballarni qo'shib o'rtachasi olinadi.

1.3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari bo'yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarining bajarilishi hajmi va sifatiga qarab 2 dan 5 bahogacha berilishi mumkin (topshiriqlarini to'la mustaqil bajargan va amalda qo'llay oladigan talabaga 5 baho, sifatli va meyor talablari darajasida bajargan talabalarga 4 baho, agar to'la bo'lmasa, o'rta darajada 3 baho, topshiriqlarni bajarilish darajasi qoniqarsiz bo'lsa 2 baho). Mustaqil ish mashg'ulotlarida olingan jami ballarni qo'shib o'rtachasi olinadi.

2.2. Oraliq baholash yozma(test) tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 5 baho bilan baholanadi. Oraliq nazoratdagi jami savollarga qo'yilgan ballarni qo'shib o'rtachasi olinadi. (30 ta test savoliga javob berishi so'raladi. Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan, ha bir noto'g'ri javob 0 ball bilan) baholanadi.

- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – 8,6-10 ball
- savolning mohiyati umumiy ochilgan bo'lsa, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – 7,1-8,5 ball
- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa va ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa – 5,5-7,0 ball
- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – 4,0-5,4 ball

1.4. Yakuniy baholash yozma tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 10 ballacha jami 30 ball bilan baholanadi yoki test tarzida o'tkazilib, 30 ta test savoliga javob berishi so'raladi. Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan, ha bir noto'g'ri javob 0 ball bilan baholanadi. Yakuniy baholash yozma tarzda o'tkazilgan taqdirda baholash quyidagi tartibda olib boriladi.

- agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – 8,6-10 ball
- savolning mohiyati umumiy ochilgan bo'lsa, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – 7,1-8,5 ball
- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa va ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa – 5,5-7,0 ball
- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – 4,0-5,4 ball

### *Namuna*

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo'yicha konsultatsiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. TMI bo'yicha konsultatsiya darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Konsultatsiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi konsultatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi: TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beriladi; topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi; tegishli adabiyotlar va axborot manbaalarini tavsiya qiladi; TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi va baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsultatsiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabanning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

<b>Hafta kunlari</b>	<b>Juftlik</b>	<b>Fan nomi</b>	<b>Auditoriya</b>	<b>Mashg'ulot turi</b>	<b>O'qituvchining F.I.Sh.</b>
Dushanba	1	Ona tili va bolalar adabiyoti	312	Ma'ruza	dots. M. Xamidova
	2	Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi	306	Amaliy	o'qituvchi M. Saidvaliyev

	3	Matematika o'qitish metodikasi	318	Ma'ruza	o'qituvchi A.Toshxonov
	4	TMI(matematika o'qitish metodikasi)	318	Konsultatsiya	o'qituvchi A.Toshxonov

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha "Yo'riqnoma". – Toshkent, 2009 yil.
2. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom. – Toshkent, 2009 yil.
3. "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom. – Toshkent, 2018-yil.